

KITOB VA KITOBXONLIKNI INSONIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI VA
AHAMIYATI

Nurmatova Shalola Ashirovna

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 15-maktab kutubxonachisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola kitob yaratilish tarixi, hamda, kitob mutolaasi va uning foydalari haqida. Shuningdek maqolada kitobxonning yosh toifalari va ular bilan qanday ishlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit soʻzlar: *kitobxonlik, kutubxona, president, Shavkat Mirziyoyev, tashabbus, yosh kitobxon, kitobxonlar bayrami, pergament, sopol, shoyi.*

Abstract: *This article is about the history of book creation, as well as, book reading and its benefits. The article also provides information on the age categories of the reader and how to work with them.*

Keywords: *reading, library, president, Shavkat Mirziyoyev, initiative, young reader, readers' holiday, parchment, ceramics, silk.*

KIRISH.

Kitob insoniyat kitob durdonalari to'lab avlodlarga yetkazuvchi vosita, odamzot yaratgan mo'jizalardan biri hisoblanadi. Kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbai, fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai hisoblanadi. Kitob moziy darakchisi bugunning tarbiyachisi va muallimi, kelajakning yo'l boshlovchisi. Uma'naviy hazina haqiqiy boylik. Dono xalqimiz kitob haqida shunday deydi: "Kitob ko'rmagan kalla - giyoh unmagani dala". Bu hikmatli so'zda shunday ma'no borki, giyoh o'smagani dalani hech kimga foydasi yo'q, undan hech kim manfaat topmagani kabi kitob ko'rmagan kalla ham shu kabi hech kimga foydasi tegmaydi, o'z fikrini namoyan qila olmaydi, qaysi gapni qayerda ishlata olmaydi. Shuning uchun ko'p kitob mutolaa qilib tafakkurimizni o'stirishimiz zarur.

Ajdodlarimiz hayotida ham kitob muhim rol o'ynagan. Ular kitobni o'z do'stlariday ko'rishgan. Jumladan Alisher Navoiy shunday degan: "Kitob-beminnat ustoz, har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi". Kitobni biz azaldan boylikdan ustun qilib kelganmiz. Bunga bir misol, Abu Ali Ibn Sino Buxoro hukmdori Nux ibn Mansurni davolagach, evaziga oltini kumushga to'la sandiqqa emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishni avzal kran edi. "Kitobdan yaxshi do'st yo'q", "Kitob-beminnat do'st" kabi maqollarni eshidganmiz. Buyuk rus



olami Aleksandr Pushkin doimo kitobni do'st tutgan . Pushkin vafot etar chog'ida, unga "do'stlaringiz bilan vidolashing", deyishadi. Pushkin xonaning burchagidagi kitob javonida termulib, "Xayr, mening do'stlarim!" deya jon bergan. Biz ham kitobni do'st tutmog'imiz lozim, zero barcha bilimlarning manbai bu kitob. Inson bilimli tarbiyasi, kasb-hunarli, baxtli bo'lishining muhim olimi-bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish, kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Kitobga hamroh bo'lgan inson faqat va faqat odamiylik saboqlarini o'rganadi. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitob mutolaasining alohida o'rni bor. Har qanday muvaffaqiyatning kaliti bu kitobdir. U kelajagimiz poydevori. Shunday ekan aziz yoshlar kitob o'qing zero, kitob insonning hayot yo'lidagi yo'ldoshi bo'lsa, hayot so'qmoqlaridan mamnuniyat bilan o'tadi.

Kitob bilan tanishish, mutolaa qilish, insonga o'zgacha zavq beradi. Kitobxon mutolaa qilar ekan kitob bilan yaqinroq tanishadi, uning ilmiy-badiiy qimmatini haqida tasavvur hosil qila boshlaydi, fikrlaydi, mutolaa madaniyati yuksaladi.

Yurtboshimizni kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlarida, barcha ta'lim maskanlaridagi o'tkazilayotgan “Yosh kitobxon”, “Kirobxonlar bayrami”, ko'rik tanlovlari, dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob do'konlari va chekka qishloq larda ochilayotgan kutubxonalar yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishda muhim o'rin tutmoqda. Kitobning mohiyati mangudir... Bu mohiyat – tafakkurni abadiylashtiradi.

Mutolaa madaniyati kishining manbaani to'laqonli tushunishi, undan zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglash hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kitob mutolaasi insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. “Mutolaa” so'zi arabcha o'qish degan ma'noni anglatadi, bugungi kunda esa u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushuncha anglatadi.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga etkazadi. Haqiqatdan ham hech bir manbaa kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi.

Har bir kitobxon o'z yosh toifasidan kelib chiqib badiiy asarlar yoki ilmiy asarlarni o'qishi, yoritilgan fikrlarni yanada teranroq anglab yetishiga imkon hosil bo'ladi. Buning uchun ota-ona, bog'cha, maktab hamkorligida bolaning qiziqishlari to'laqonli o'rganilishi kerak. Bir bolaga yeti mahalla ota-ona deganlaridek, farzand tarbiyasida, ularning ma'naviyatli madaniyatli bo'lib



kamol topishida barcha birdek mas'ul hisoblanadi. Kitob o'qishni odat qilmagan oila – ma'naviy qashshoq oiladir deb bejizga aytishmagan. Shunday ekan faqat ota-ona emas balki kutubxona hodimlari ham o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lishi, kitobxonlarga, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda kitob to'g'ri kitob tanlab berishi kerak bo'ladi. Bolalar o'qishi pedagogikasida yoshiga qarab o'qishning o'sishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bolalalik 6-9 yosh; bolalalikdan o'spirinlikka o'tish 10-11 yosh; o'spirinlik 12-13yosh; o'spirinlikdan o'smirlikka o'tish 14 yosh hisoblanadi. Bu toifadagilarning yosh chegarasi harakatchan bo'ladi, ya'ni kitobxonning ijtimoiy- psixologik sharoitining shakllanishiga ko'ra 10 yoshli bolaning o'ziga xos tipologik xususiyatiga qarab o'spirin kitobxon toifasiga qo'shish, 14 yoshlilarni esa o'spirinlikka o'tayotgan kitobxon toifasi tabiatidagilar qatoriga qo'shish mumkin bo'ladi. O'qish –bolaning ma'naviy hayotiga mustaxkam kirib borishi uchun oldindan ta'sirchan-estetik tayyorgarlik ko'rish zarur. Kutubxonachining vazifasi kitobxon va kitobni yaxshi bilishdan iborat.

Bizning jonajon do'stimiz bo'lgan kitobning tarixiga nazar tashlasak, kitob hozirgi shaklga kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan. Bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi bobilliklar, ossuriyaliklar va boshqa qadimgi dunyo xalqlari kitob sifatida sopollardan foydalanganlar. Xitoyda esa dastlabki kiroblar bambuk daraxtidan qilingan plastinkalarda yozilgan. Keyinchalik Xitoyda shoyiga yozishni, eramizning I asrida esa, qog'ozga yozishni ixtiro qilishdi.

Qadimgi madaniyat beshklaridan biri bo'lgan Misrda dastlabki kitob matnlari tosh bo'laklariga o'yib yozilgan.

Sharq xalqlari yuksak madaniyatining namunalaridan biri “Avesto” kitobi ham, dastlab 12 ming qoramol terisidan ishlangan pergamentga yozilgan.

O'rta asrlarda pergament yoki papirus varoqlarini to'rt buklab, daftar (tetrad, yunoncha “to'rtlik”) shkliga keltirilgan. Mana shunday daftarlarning bir nechtasini birlashtirib yaratilgan kitoblar “Kodeks” deb atalgan. Kitobning hozirgi shakliga kelishida kodekslar dastlabki qadam bo'lgan . Milodiy 1-asr oxirida. pergament kodlari haqida birinchi eslatmalar paydo bo'ladi - aslida sahifalardan iborat kitoblar. Yozuvlardan ustun ustunligiga qaramay, ular faqat milodiy 3-asrga kelib keng tarqaldi.

Har yili dunyoda 755,755 ta yangi kitoblar nashr etiladi. 2017-yilning o'rtalaridan boshlab hozirgacha dunyo bo'yicha 134,399,411ta kitob nashr etilgan. Bu raqamlar shunchaki raqam emas, biz yoshlarni hartomonlama yetuk inson bo'lib yetishishimiz uchun qilinayotgan say harakatlar natijasidir.



“Kitob seni hali sen koʻrmagan dunyoga olib boradi, sen eshitmagan soʻzlarni aytadi” deydi Geytsen. Darhaqiqat, kitob juda koʻplab sir - sinoatlarga boydir. Uning boyliklari hech ado boʻlmaydi. Kitob insonga qanot bagʻishlaydi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, kitob eng yaqin doʻstlardan biridir. Biz savollarga kitoblar orqali javoblar topamiz, kitoblar fikrlash uchun eng muhim ozuqadir. Kitoblar eng yaxshi intellektual dam olishga va tasavvurlar parvozigiga taklif qiladi. Ernest Xemingueyning taʼbiri bilan aytganda: Yaxshi kitob ayzbergga oʻxshaydi, yeti-sakkiztasi suv ostida yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboeva U., Sh U., Rahmonova N. CREATIVE PERSON-THE ROLE OF LIVE WORD IN EDUCATING AN ACTOR //European Journal of Arts. – 2019. – №.
- 3.
2. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov S. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 4. – С. 559-567.
3. Болтабоева У. Нутқ санъатининг ўзига хос хусусиятлари: муаммо ва ечимлар //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2).
4. Boltaboeva U. Using Oral Folk Art Methods in Improving Speech Technology //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
5. Akbarova M., Tursunova G., Abdunazarov Z. Section 3. Theater art //European Journal of Arts. – С. 125.
6. Усмонов Ш. САҲНАДА ТАШҚИ ҚИЁФАГА АКТЁРНИНГ МУНОСАБАТИ //Oriental Art and Culture. – 2020. – №. II.
7. Усмонов Ш. Илм даргоҳига бир назар //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
8. Умарова Ҳ., Усмонов Ш. Санъатга бағишланган умр //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
9. Dehqonov R., Tursunova G., Abdunazarov Z. Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of higher education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т.

